

## ARTISTIC CREATION IS SPIRITUAL AND AS A COGNITIVE ASPECT IN PRACTICAL ACTIVITY

M. Allayarova

Ph.D., Associate Professor

Samarkand State University, Department of Philosophy and National Idea,

O. Kodirov

4th year student, Samarkand State University

### Annotation:

This article focuses on the cognitive issue of shaping a person's artistic creativity. It highlights and analyzes the cognitive significance of artistic creation as an important aspect of a person's spiritual and practical activity. It has been argued that artistic activity is one of the most unexplored problems in terms of cognition, and that the scientific study of this topical issue is of great importance in the field of education today.

Butun dunyo bo'ylab ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar keskinlashib borayotgan hozirgi davr komil inson masalasiga yangicha, umumbashariy ijtimoiy taraqqiyot mezoni tamoyillari asosida yondashishni taqozo etmoqda. Shunga ko'ra barkamol avlodni shakllantirish har qaysi davrdan ko'ra ham dolzarb masalaga aylanib qoldi. Chunki globallashuv davrida ma'naviy tahdidlarning oshib borishi yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. "Bugungi kunda farzandlarimizning ma'naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo'lgan turli xil xurujlar, yoshlarimiz ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada hushyor va ogoh bo'lishga da'vat etishi tabiiydir" - deb ta'kidlaydi mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov. Ushbu jarayonda yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishning muhim qirralari bo'lgan badiiy estetik va axloqiy tarbiyasi masalasini o'rganish, tahlil etish va ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi. Garchi inson barcha ezgu va go'zal narsalarni anglash va his etish orqali ma'naviyat sarchashmalarini kashf etadi va ma'naviy qadriyatlarni yuzaga keltiradi. Shunga ko'ra barkamol insonni shakllantirishda ma'naviy taraqqiyotning muhim shartlari bo'lgan shaxs badiiy estetik tarbiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan badiiy ijodni shakllantirish masalasi va unga kognitiv jihatdan yondashish, o'ranish, tahlil etish muhim ahamiyatga egadir.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlarni badiiy ijodkorlikka yo'naltirish va ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Shaxs badiiy ijodini shakllantirishga kognitiv yondashuv hali etarli darajada o'rganilmagan masalalardan biridir(kognitiv so'zi inglizcha (lotin) "cognize" so'zidan olingan bo'lib, u bilmoq, anglamoq, tushunmoq va fikrlamoq yoki "cognition" - bilish, tushinish kabi ma'nolarni beradi). O'z o'rnida badiiy ijod insonning bilish faoliyatining mahsuli va insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi bilan bog'liq hodisadir. Tadqiqotchi Z.Aslanov fikriga ko'ra, inson sezgi idroki tafakkurda voqelikning ushbu parchasi ramzining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Shu boisdan, o'ylaymizki, shaxs badiiy ijodi xalq ma'naviy- madaniy, tarxiy, badiiy-estetik hayotining ramzi, uning ichki dunyosiga dahldor voqelikni idrok etish jarayonida bilish faoliyati ijrochisi, ya'ni sub'ekti



va ushbu faoliyat ob'ekting o'zaro qarama-qarshiligiga asoslangan "sub'ekt-ob'ekt munosabati" paydo bo'ladi.

Kognitivlikning negiziga e'tibor qaratilsa, u faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmaydi. «Bugungi davrda kognitivlik AKTda – robotlashtirish va sun'iy ongni shakllantirish, mudofaa va xavfsizlikda – kognitiv texnologiyalarning tatbiq etilishi, tibbiyotda – farmatsevtika, psixoterapiya va neyrovizualizatsiya va yana boshqa bir nechta sohalarga bevosita kirib bormoqda. Nazarimizda, yaqin 10-15 yilda kognitiv texnologiyalarning joriy qilinmagan jabhaning o'zi qolmaydi», deb hisoblaydi tadqiqotchi B.Alimov.

O'z o'rnida badiiy ijod mahsuli xalq, millat yoki mamlakatning ma'naviy-madaniy hayotini, imijini, tafakkur borlig'ini o'zida namoyon etadi. SHunga ko'ra millat va halqning hayotini muayyan obrazlardagi ifoda etilgan bilish mahsuli sifatida kishilar ongida shakllanadigan tasavvur bilan bog'liq bo'lganligi uchun kognitivlikning ahamiyati juda katta. Chunki bu hodisa muayyan xalq badiiy ijod mahsuli sifatida o'zining qadriyatlari, urf-odatlarini, ma'naviy-ruhiy borlig'i shu orqali juda yaqqol namoyon bo'ladi. U badiiy ijod mahsulini tafakkur, ya'ni ong, ruhiyat bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

E'tiborli jihati shundaki, badiiy ijodning kognitiv jihatlari o'zga sivilizatsiyalarning madaniy boyligini o'rganish, takomillashish jarayonlarini tahlil qilish, "o'zaro ta'sir va aks ta'sir" qonuniyatining amaliyotdagi ta'sirida beqiyos o'ringa ega. Shu o'rinda V.Taranov qayd etganidek, odamlar tasavvuridagi har qanday hudud imiji asosan OAV tarqatgan xabarlar asosida shakllanadi. Badiiy ijod ham muayyan mintaqa, hudud, mamalakatda yashovchi xalqning tasavvuri, milliy g'oyasi, dunyoqarashi, badiiy-estetik tafakkuri mahsuli sifatida muayyan g'oya, informatsiyalarni o'zini ifoda etadi. Xorijiy va milliy ommaviy axborot vositalarida mamlakatimizning yangi qiyofasi, uning obrazi, imijini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil kino, film, ko'rsatuv, badiiy asarlar kabi badiiy ijod materiallarining namoyish etilishida ularni atroflicha o'rganish, tadqiq va tahlil qilish ham ijtimoiy-siyosiy, ham ma'naviy-ma'rifiy, ham milliy-psixologik jihatlardan alohida ahamiyatga egadir. Biroq, psixologiyadan yaxshi ma'lumki, odamlar salbiy axborotni qiziqish bilan va tezroq qabul qiladilar, ijobiy axborotga esa nisbatan e'tiborsiz munosabatda bo'ladilar. Ikkinchi tomondan, yosh bolalarga namoyish qilinayotgan milliy va xorijiy multfilm, ko'rsatuvlar, badiiy filmlarni nazoratga olish va tahliliy yondashgan holda ekranlarga chiqarish talab etiladi. E'tiborli tomoni shundaki, bu singari tizimlarni qudratli davlatlardan tashqari hech bir davlat yoki markazlar cheklash yoki nazorat qilish imkoniga ega bo'lmaydi. "Aslida, – deb yozadi o'zbek publitsisti J.Melikulov, – buning ortida G'arb qadriyatlari va qoliplariga moslangan g'oyalarni butun dunyoga joriy etish va shu orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirish istagi yotadi. Maqsad esa ongni eksport qilish".

Badiiy ijodni qayd etilgan yo'nalishda tadqiq etish, san'at asarlarida ifodalangan ijtimoiy ideal, estetik g'oyalarning kishilar faoliyatining motiviga va unda ma'naviy qadriyatlar maqomatini olishning ob'ektiv sharoitlari va sub'ektiv omillarini ochib berishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Badiiy ijod umumiy ijodiy faoliyatning maxsus tipi bo'lib, o'zaro birlikda ob'ektiv sharoit va sub'ektiv omillarni taqozo etadi, lekin uning jamiyat hayotida madaniyat fenomenini sifatida amal qilishi boshqa ijod tiplari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lish zarurligi bilan taqozo etilgan. Shunga ko'ra badiiy ijod barcha kasb egalari, barcha kishilar uchun birdek zarur bo'lgan ma'naviyat komponentidir. Mazkur ijod tipi, ayniqsa, jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, ilmiy, madaniy, texnikaviy sohalarida moddiy va ma'naviy boyluklarni yaratishda ishtirok etuvchi kishilarning faoliyati tarkibida muhim tizim tashkil etuvchi komponent bo'lib hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, badiiy ijodga kognitiv yondashish ma'naviyat fenomenining muhim shartidir va uni



ta'im sohasida ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga egadir .

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir. T., 2015 , 267- bet.
2. Z.Arslonov. Kognitiv tilshunoslik haqida qisqacha. [http://arslonov.blogspot.com/2012/01/blog-post\\_12.html](http://arslonov.blogspot.com/2012/01/blog-post_12.html).
3. B.Alimov.Zamonaviy media muhitda mamlakat imijining kognitiv aspektlari. <http://beruniyalimov.uz/archives/511>.
4. Taranov V. Tradicionnye i novye media v regional'nom imidzhmejkinge v informacionnom setevom obshchestve. <http://izvestia.asu.ru/2010/4-1/pols/TheNewsOfASU-2010-4-1-pols-06.pdf>.
5. J.Meliqulov. Importlashayotgan ong yoxud globallashayotgan dunyo muammolari. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2006 yil, 1 dekabr. 48-son (3877), 2-bet.

<b>Muallif</b>	Dotsent Allayarova Marxabo Mavlyanovna, 4 kurs talabasi O. Kodirov
<b>Sho'ba nomi</b>	Ta'limda kognitiv tadqiqotlar: muammolar, istiqbolli yo'nalishlar va ilg'or tajribalar.
<b>Makola nomi</b>	Badiiy ijod shaxs ma'naviy va amaliy faoliyatida kognitiv aspekt sifatida
<b>Lavozimi</b>	Falsafa fanlari nomzodi, dotsent.
<b>Ish joyi</b>	Samarqand davlat universtiteti, "Falsafa va milliy g'oya" kafedrası
<b>Tel rakami</b>	99890 603 0552
<b>e-mail</b>	Allayarova-1972@ mail.ru